

**Musayeva Sayyora Abdivaxitovna***Alfraganus university,  
Xalqaro turizm menejmenti  
kafedrası katta oqituvchisi*

## **MICE TURISTIK ERKIN ZONASI (TEZ-MICE) KONTSEPTSIYASINI RIVOJLANTIRISH VA TRANZIT SAYYOHLARNI BIZNES ISTE'MOLCHIGA AYLANTIRISH MEXANIZMI**

**Annotatsiya.** Maqolada tranzit yo'lovchilar oqimini ishbilarmonlik tadbirlari turizmi (MICE) iste'moliga aylantirishning institutsional mexanizmi asoslangan. Turizm sohasida ilgari surilgan tranzit-konversiya g'oyasi ishbilarmonlik segmentiga moslashtirilib, aeroport tuguniga tutash hududda maxsus huquqiy rejim, kongress-infratuzilma, qisqa formatli stopover-mahsulotlar va yagona raqamli platformani birlashtiruvchi MICE turistik erkin zonasi (TEZ-MICE) kontseptsiyasi taklif etilgan. Konversiya jarayoni to'rt bosqichli voronka ko'rinishida modellashtirilgan: tranzit yo'lovchi – stopover-ishtirokchi – qaytuvchi delegat – tadbir buyurtmachisi. Xalqaro aviatugunlarning stopover-dasturlari qiyosiy tahlil qilinib, ularning MICE yo'nalishidagi bo'shlig'i aniqlangan. Parametrik hisob-kitob har 100 ming tranzit yo'lovchiga nisbatan konversiyaning ehtiyotkor, bazaviy va faol ssenariylarida kutilishi mumkin bo'lgan qo'shimcha tushumlarni baholaydi. Kontseptsyani joriy etishning huquqiy, infratuzilmaviy va tashkiliy shartlari hamda bosqichli tartibi asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** MICE turizmi; tranzit yo'lovchilar; stopover-dastur; turistik erkin zona; maxsus iqtisodiy zona; konversiya voronkasi; aviatugun; ATA-karnet; ishbilarmonlik tadbirlari; O'zbekiston.

**Abstract.** The article substantiates an institutional mechanism for converting transit passenger flows into business events (MICE) consumption. The transit-conversion idea previously advanced in tourism research is adapted to the business segment: a MICE free tourist zone (FTZ-MICE) concept is proposed, combining a special legal regime in the airport-adjacent area, congress infrastructure, short-format stopover products, and a unified digital platform. The conversion process is modeled as a four-stage funnel: transit passenger – stopover participant – returning delegate – event client. Stopover programs of international air hubs are comparatively analyzed, and their MICE gap is identified. A parametric calculation estimates additional revenues per 100 thousand transit passengers under cautious, baseline, and active conversion scenarios. Legal, infrastructural, and organizational conditions for implementing the concept, as well as a phased procedure, are substantiated.

**Keywords:** MICE tourism; transit passengers; stopover program; free tourist zone; special economic zone; conversion funnel; air hub; ATA carnet; business events; Uzbekistan.

## Kirish

Har kuni yirik aviaturugunlar orqali millionlab yo'lovchilar bir reysdan ikkinchisiga o'tadi – va ularning mutlaq ko'pchiligi tranzit mamlakat iqtisodiyotiga deyarli hech narsa qoldirmaydi. Ayni shu «uchib o'tuvchi» oqimni daromad manbaiga aylantirish g'oyasi so'nggi o'n yillikda yetakchi aviaturugunlarning strategik kun tartibiga kirdi: Singapur, Dubay, Istanbul va Doha o'z stopover-dasturlari orqali tranzit to'xtashni qisqa turistik tashrifga aylantirishni o'rgandi. O'zbekiston geografik joylashuvi – Yevropa, Janubiy va Sharqiy Osiyo yo'nalishlari kesishmasidagi mavqei – shu turdagi strategiya uchun tabiiy asos yaratadi: mamlakat 2025-yilda 11,7 million xorijiy sayyohni qabul qildi, turizm eksporti 4,8 milliard AQSh dollariga yetdi, vizasiz tartib 94 davlat fuqarolariga tatbiq etilgan [12; 13].

Milliy adabiyotda tranzit oqimning turistik salohiyati allaqachon e'tirof etilgan: A. Baxromov tranzit yo'lovchini turistik xizmatlar eksporti iste'molchisiga aylantirishga qaratilgan konversiya yondashuvini ilgari surib, tranzit uchun yengillashtirilgan rejimli «turistik erkin zona» elementlarini taklif etgan [3]. Biroq mazkur yondashuv umumiy turistik iste'mol – ekskursiya, savdo, mehmondo'stlik xizmatlari – mantig'ida ishlab chiqilgan bo'lib, ishbilarmonlik tadbirlari segmentining o'ziga xos talab tuzilmasi – vaqt taqchilligi keskin, xarajat darajasi yuqori, qaror mexanizmi korporativ bo'lgan biznes-yo'lovchi xatti-harakati – alohida tadqiq

etilmagan. Ayni paytda aynan biznes-yo'lovchi tranzit oqimning eng «konversiyabop» qismi hisoblanadi: uning uchun qisqa to'xtash tasodifiy holat emas, ish safarining odatiy elementi, destinatsiya bilan tanishuv esa kelgusi tadbir joyini tanlashda bevosita rol o'ynaydi.

Davlat siyosati bunday mexanizm uchun huquqiy zamin yaratib bo'ldi. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 17-fevraldagi O'RQ-604-son «Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida»gi Qonuni imtiyozli rejimli hududlarni tashkil etishning umumiy asoslarini belgilaydi [11]; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi PF-102-son «O'zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini yanada oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmoni turizm obyektlari uchun rag'batlantirish vositalarini kengaytirgan [14]; Prezidentning 2025-yil 11-noyabrdagi PQ-348-son «O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi faoliyatini tashkil etish va turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori esa to'lov qobiliyati yuqori turistlar oqimini ko'paytirishni strategik vazifa etib qo'ygan [13]. Mazkur maqolaning maqsadi – tranzit-konversiya yondashuvini MICE segmentiga moslashtirib, aeroport tuguniga bog'langan MICE turistik erkin zonasi (TEZ-MICE) kontseptsiyasini va tranzit yo'lovchini bosqichma-bosqich tadbir buyurtmachisiga aylantiruvchi mexanizmni ilmiy asoslashdan iborat.

### Adabiyotlar tahlili

Tadqiqotning nazariy negizini uch adabiyot oqimi tashkil etadi. Birinchi oqim – tadbirlar turizmi iqtisodiyoti: D. Getz va S.J. Page tadbirlar turizmini mustaqil bilimlar sohasi sifatida tizimlashtirgan [7], L. Dwyer va P. Forsyth MICE ta'sirini baholashning kontseptual chegaralarini belgilagan [6], M.J. Lee va K.J. Back esa konvension bozorning iqtisodiy qiymat omillarini umumlashtirgan [9]. Ikkinchi oqim – destinatsiya tanlovi va raqobatbardoshligi: G.I. Crouch va J.R.B. Ritchie farovonlik resurslarning mavjudligidan emas, ularni samarali joylashtirishdan kelib chiqishini asoslagan [4], L. Dwyer va C. Kim raqobatbardoshlikning integratsiyalashgan modelini taklif etgan [5], J. Mair va K. Thompson assotsiatsiya delegatlarining ishtirok qarori ko'p bosqichli jarayon ekanini ko'rsatgan [10] – bu kuzatuv konversiya voronkasi g'oyasi uchun bevosita nazariy tayanchdir. Uchinchi oqim – barqarorlik va yangi formatlar: J. Mair va A. Smith tadbirlarning barqarorlik mezonlari destinatsiya tanloviga ta'sir etuvchi omilga aylanganini qayd etadi [8], bibliometrik tahlillar esa MICE tadqiqotlarida raqamlashuv va gibril formatlar ulushining o'sishini tasdiqlaydi [1].

Milliy adabiyotda turizm eksporti va uning institutsional omillari keng o'rganilgan; tranzit oqimga turistik resurs sifatida qarash esa A. Baxromov tadqiqotlarida ilgari surilib, transportlogistika integratsiyasi asosida tranzit yo'lovchiga salohiyatli turist sifatida

yondashish taklif etilgan [2; 3]. Mazkur maqola ushbu yondashuvni rad etmaydi, aksincha, uni ixtisoslashtiradi: umumiy turistik konversiya o'rniga biznes-iste'mol konversiyasi qo'yiladi. Bunday ixtisoslashuv uch jihatdan yangi: birinchidan, maqsadli auditoriya – dam oluvchi emas, biznes-yo'lovchi; ikkinchidan, mahsulot – ekskursiya emas, qisqa formatli ishbilarmonlik tajribasi; uchinchidan, kutilayotgan natija – bir martalik xarajat emas, kelgusi tadbirlar zanjiri. Xalqaro stopover-dasturlar tahlili ham xuddi shu bo'shliqni tasdiqlaydi: mavjud dasturlar shahar ekskursiyalari va mehmonxona paketlariga qaratilgan bo'lib, ularning birortasi tranzit oqimni tizimli ravishda MICE mahsulotiga yo'naltirmaydi.

### Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot uch usulni birlashtiradi. Birinchisi – qiyosiy institutsional tahlil: yetakchi aviatugunlarning stopover-amaliyoti yagona mezonlar (mahsulot formati, huquqiy rejim, maqsadli auditoriya, MICE yo'nalishi mavjudligi) bo'yicha solishtiriladi. Ikkinchisi – kontseptual loyihalash: konversiya jarayoni marketingdagi voronka mantig'iga tayangan holda to'rt bosqichli model ko'rinishida quriladi va har bir bosqich uchun konversiya vositalari belgilanadi. Uchinchisi – parametrik ssenariy hisobi: rasmiy tranzit statistikasi ochiq manbalarda segment kesimida e'lon qilinmagani bois, hisob mutlaq oqim prognoziga emas, shartli birlikka – har 100 ming tranzit yo'lovchiga – nisbatan yuritiladi; konversiya ulushi va o'rtacha xarajat parametrlari

xalqaro stopover-amaliyot diapazonlaridan ehtiyotkor tamoyilda olinadi va muallif prognozi sifatida belgilanadi. Bunday yondashuv natijalarning tekshiriluvchanligini ta'minlaydi: real oqim ma'lumotlari paydo bo'lganda model qayta kalibrlanadi.

### Tahlil va natijalar

**Xalqaro stopover-amaliyatning qiyosiy manzarasi.** Yetakchi aviaturugunlar tajribasi tranzit oqimni daromadga aylantirishning ishlaydigan andozalarini beradi (1-jadval). Umumiy xulosa ikki qismdan iborat: bir tomondan, stopover-dasturlar tranzit

yo'lovchining bo'sh vaqtini turistik iste'molga aylantirish texnologiyasini isbotladi; ikkinchi tomondan, ushbu texnologiya hamon dam olish mahsulotiga qaratilgan bo'lib, biznes-yo'lovchining professional ehtiyojlari – tezkor B2B aloqalar, destinatsiyani tadbir maydoni sifatida ko'rish, korporativ dastur elementlari – taklif tarkibiga kiritilmagan. Aynan shu bo'shliq keyinroq kiruvchi tugunlar uchun ixtisoslashuv imkoniyatini ochadi: umumiy stopover bozorida Singapur yoki Dubay bilan raqobatlashish mushkul, MICE-stopover bo'shlig'ida esa birinchi bo'lish mumkin.

### 1-jadval

#### Xalqaro aviaturugunlar stopover-dasturlarining qiyosiy tavsifi

| Tugun                    | Mahsulot formati                                           | Maqsadli auditoriya                          | MICE yo'nalishi      |
|--------------------------|------------------------------------------------------------|----------------------------------------------|----------------------|
| <b>Singapur (Changi)</b> | Bepul shahar ekskursiyalari, tranzit zonadagi xizmatlar    | Barcha tranzit yo'lovchilar                  | Alohida ajratilmagan |
| <b>Dubay</b>             | Tranzit mehmonxona paketlari, qisqa viza tartib-taomillari | Uzoq masofali reyslar yo'lovchilari          | Alohida ajratilmagan |
| <b>Istanbul</b>          | Aviatashuvchi hisobidan shahar dasturi va mehmonxona       | Belgilangan kutish oralig'idagi yo'lovchilar | Alohida ajratilmagan |
| <b>Doha</b>              | Tranzit viza va shahar turlari paketi                      | Barcha tranzit yo'lovchilar                  | Alohida ajratilmagan |

*Manba: muallif ishlanmasi (aviaturugunlarning ochiq e'lon qilingan dasturlari tahlili asosida; formatlar umumlashtirilgan).*

**TEZ-MICE kontseptsiyasining tarkibiy tuzilmasi.** Taklif etilayotgan

MICE turistik erkin zonasi aeroport tuguniga tutash hududda to'rt qatlamni birlashtiradi (2-jadval). Huquqiy qatlam maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risidagi qonunchilik doirasida tadbirlar faoliyatiga moslashtirilgan rejimni nazarda

tutadi: ko'rgazma yuklari uchun vaqtinchalik olib kirishning soddalashtirilgan tartib-taomillari (ATA-karnet mexanizmidan foydalanish imkoniyatlari bilan), tadbir xizmatlari uchun soliq rag'batlari hamda qulaylashtirilgan tranzit tartiblarining tadbir ishtirokchilariga tatbiq etilishi. Infratuzilma qatlami aeroport-ekspress aloqasi, tranzit

mehmonxonalar va modulli kongress-hubni qamrab oladi. Mahsulot qatlami 6 soatdan 48 soatgacha formatlarni o'z ichiga oladi: ekspress B2B uchrashuvlar, sayt-inspeksiya dasturlari, mini-forumlar va incentive-elementlar. Raqamli qatlam esa parvozgacha bron qilish platformasi orqali konversiyani «kirish eshigi» vazifasini bajaradi.

**2-jadval**
**TEZ-MICE kontsepsiyasining tarkibiy qatlamlari va funksiyalari**

| Qatlam                   | Tarkibi                                                                                               | Funksiyasi                                                                        |
|--------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Huquqiy rejim</b>     | Maxsus iqtisodiy zona maqomi; ko'rgazma yuklari uchun soddalashtirilgan tartib; tranzit yengilliklari | Tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish, tadbir tashkilotchilari uchun jozibadorlik |
| <b>Infratuzilma</b>      | Aeroport-ekspress; tranzit mehmonxonalar; modulli kongress-hub                                        | Qisqa to'xtashda vaqt yo'qotishsiz tadbir tajribasi                               |
| <b>Mahsulot</b>          | 6–48 soatlik stopover-MICE paketlari: B2B uchrashuvlar, sayt-inspeksiya, mini-forumlar                | Tranzit vaqtni professional qiymatga aylantirish                                  |
| <b>Raqamli platforma</b> | Parvozgacha bron; tadbirlar kalendari; ishtirokchi profili                                            | Konversiyani kirish nuqtasi va ma'lumotlar bazasi                                 |

*Manba: muallif ishlanmasi.*

**Konversiya voronkasi mexanizmi.** Kontsepsiyani harakatlantiruvchi mexanizmi to'rt bosqichli konversiya voronkasidir (1-rasm). Birinchi bosqichda tranzit yo'lovchi parvozgacha bron platformasi va qulaylashtirilgan tartiblar orqali stopover-ishtirokchiga aylanadi. Ikkinchi bosqichda sifatli qisqa tajriba – B2B uchrashuv, kongress-hub bilan tanishuv, destinatsiya taassuroti – uni to'laqonli tadbirga qaytuvchi delegatga aylantiradi.

Uchinchi bosqichda bidding taklifi, subvensiya vositalari va tadbir elchilari dasturi delegatni o'z tashkiloti tadbirini O'zbekistonga olib keluvchi buyurtmachiga aylantiradi. Voronkaning har bir o'tishi o'lchanadigan ko'rsatkich bilan ta'minlanadi – bron ulushi, qayta tashrif ulushi, jalb etilgan tadbirlar soni – bu esa mexanizm samaradorligini boshqarish imkonini beradi. Muhimi, voronka an'anaviy stopover mantig'idan sifat jihatidan farq qiladi: u

bir martalik xarajatni emas, tadbirlar  
zanjirini yakuniy natija deb biladi.

Konversiya vositasi: qulaylashtirilgan tranzit tartibi + oldindan bron platformasi



TEZ-MICE rejimi: maxsus iqtisodiy zona maqomi • ATA-karnet tartib-taomillari • kongress-hub infratuzilmasi • yagona raqamli platforma

## 1-rasm. Tranzit yo'lovchini tadbir buyurtmachisiga aylantirish voronkasi.

Manba: muallif ishlanmasi.

### Parametrik ssenariy hisobi.

Mexanizmning iqtisodiy ko'lamini baholash uchun shartli birlikka nisbatan parametrik hisob bajarildi (3-jadval). Har 100 ming tranzit yo'lovchiga nisbatan uch ssenariy ko'rildi: ehtiyotkor ssenariyda stopover-konversiya 3 foiz, o'rtacha xarajat 250 AQSh dollari; bazaviy ssenariyda mos ravishda 5 foiz va 300 AQSh dollari; faol ssenariyda 8 foiz va 350 AQSh dollari. Natijada bevosita stopover-tushum

0,75 milliondan 2,8 million AQSh dollarigacha oraliqda baholanadi; ikkinchi darajali samara – qaytuvchi delegatlar va jalb etilgan tadbirlar – hisobga olinsa, yalpi ta'sir sezilarli yuqori bo'ladi. Ta'kidlash joizki, barcha qiymatlar muallif prognozi bo'lib, illyustrativ xarakterga ega: modelning qiymati aniq raqamda emas, real oqim ma'lumotlari paydo bo'lganda darhol kalibrlash mumkin bo'lgan hisob konstruksiyasidadir.

### 3-jadval

Har 100 ming tranzit yo'lovchiga nisbatan konversiya ssenariylari (muallif prognozi)

| Ko'rsatkich                         | Ehtiyotkor | Bazaviy | Faol |
|-------------------------------------|------------|---------|------|
| Stopover-konversiya ulushi, %       | 3          | 5       | 8    |
| Stopover-ishtirokchilar, ming kishi | 3,0        | 5,0     | 8,0  |

| Ko'rsatkich                                      | Ehtiyotkor | Bazaviy | Faol |
|--------------------------------------------------|------------|---------|------|
| <b>O'rtacha xarajat, AQSh dollari</b>            | 250        | 300     | 350  |
| <b>Bevosita tushum, mln AQSh dollari</b>         | 0,75       | 1,50    | 2,80 |
| <b>Qaytuvchi delegatlar (10–15%), ming kishi</b> | 0,3        | 0,6     | 1,2  |

*Manba: muallif hisob-kitobi (parametrlar xalqaro stopover-amaliyot diapazonlari asosida; barcha qiymatlar – prognoz).*

### **Joriy etish shartlari.**

Kontseptsianing hayotiyliigi uch shartga bog'liq. Huquqiy shart – TEZ-MICE rejimini maxsus iqtisodiy zonalar qonunchiligi doirasida tadbirlar faoliyatiga moslashtiruvchi normativ hujjatning qabul qilinishi; bunda mavjud qonun [11] zarur asosni beradi, ixtisoslashgan norma esa uni tadbirlar sanoatiga «tarjima qiladi». Tashkiliy shart – zonani boshqaruvchi operatorning milliy konvension byuro bilan funksional bog'lanishi: voronkaning uchinchi o'tishi (delegatdan buyurtmachiga) aynan byuroning bidding vositalari orqali amalga oshadi. Infratuzilmaviy shart – bosqichlilik: birinchi bosqichda mavjud aeroport va mehmonxona sig'implari negizida pilot stopover-MICE paketlari sinovdan o'tkaziladi, modulli kongress-hub esa talab tasdiqlangach quriladi. Bunday ketma-ketlik kapital xarajat xatarini minimallashtiradi va kontseptsyani «avval bozor – keyin beton» tamoyiliga bo'ysundiradi.

### **Xulosa va takliflar**

Tadqiqot tranzit-konversiya yondashuvini ishbilarmonlik tadbirlari segmentiga moslashtirib, uch yangi natijaga erishdi. Birinchidan, aeroport tuguniga bog'langan TEZ-MICE kontseptsiyasi to'rt qatlamli yaxlit tuzilma – huquqiy rejim, infratuzilma, mahsulot va raqamli platforma birligi – sifatida asoslandi. Ikkinchidan, tranzit yo'lovchini bosqichma-bosqich tadbir buyurtmachisiga olib boruvchi to'rt bosqichli konversiya voronkasi ishlab chiqilib, har bir o'tish uchun vositalar va o'lchov ko'rsatkichlari belgilandi. Uchinchidan, parametrik ssenariy hisobi mexanizmning iqtisodiy ko'lamini shaffof va qayta kalibrlanadigan shaklda baholash imkonini berdi. Amaliy takliflar: Turizm qo'mitasiga aviatashuvchilar bilan hamkorlikda pilot stopover-MICE dasturini ishga tushirish; vakolatli idoralarga TEZ-MICE rejimining normativ loyihasini tayyorlash; kelgusida tashkil etiladigan milliy konvension byuroga voronkaning yakuniy bosqichini bidding vositalari bilan ta'minlash tavsiya etiladi. Keyingi tadqiqot yo'nalishi – tranzit oqimning segment kesimidagi empirik o'lchovi va

pilot dastur natijalari asosida kon-versiya parametrlarining kalibrlanishi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Сайфутдинов, Ш. С. (2021). Гастрономический туризм как фактор устойчивого развития туризма в Узбекистане. In *Инновационные технологии управления и стратегии территориального развития туризма и сферы гостеприимства* (pp. 666-673).
2. Sultonovich, S. S., & Kulshreshtha, S. (2019). The main directions of development of international tourism in Uzbekistan. *International Journal of Tourism & Travel*, 12.
3. Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li. (2025). TURIZMNI O'RTA ISTIQBOLDA SAMARALI RIVOJLANTIRISHNING MUQOBIL STRATEGIYASI.
4. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17680612>
5. Халилов Сирождиддин Шерали ўғли. (2025, November 14). ТУРИЗМ СОҲАСИ УЧУН ЮҚОРИ МАЛАКАЛИ КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ЖАРАЁНИНИНГ ТАШКИЛИЙ-ПЕДАГОГИК АСОСЛАРИ.
6. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17610859>
7. Sh, Y. S. (2025). Innovative approaches to sustainable textile production and services. *Manuscript on the Sustainable Economics, Finance and Management*, 2(5), 80-85.
8. Abdullayevich, X. U., & Shukrullayevich, Y. S. (2026, May). IMPROVING ECONOMIC MECHANISMS FOR EFFICIENT RESOURCE UTILIZATION IN CONSTRUCTION ENTERPRISES. In *International Congress on Economics, Management and Business Studies* (Vol. 1, No. 4, pp. 204-209).
9. Бердиёров, Б. С. (2026). ПРИМЕНЕНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В РАЗВИТИИ ЭКОТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ. *Asian journal of multidisciplinary research*, 3(10), 41-47.
10. Sodiqovich, B. B. (2025). O 'ZBEKISTON SHAROITIDA EKOLOGIK TURIZMNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASINING TAKOMILLASHTIRISH YO 'LLARI. *Modern education and development*, 36(1), 354-358.
11. Dostonbek, T. D. (2026). Push and Pull Motivations for Participation in Adventure Tourism: Foreign Tourist Perspectives. *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*, 7(1), 436-445.
12. Dostonbek, T. (2024). A REVIEW OF THEORETICAL BACKGROUND OF ADVENTURE TOURISM AND ITS DEVELOPMENT. *concern*, 2(6).

13. Tilovmurodov, D. (2024). Imkoniyati cheklanganlarga to'siqsiz turizm xizmatlarini tashkil etish istiqbollari. *GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT*, 2(1). [https://doi.org/10.55439/GED/vol1\\_iss1/a823](https://doi.org/10.55439/GED/vol1_iss1/a823)
14. Мусаева, С. (2023). Инновационные тенденции применения умных технологий в развитии туризма и гостиничного бизнеса. *Green Economy and Development*, 1(10), 662820.
15. Abdivaxitovna, S. (2023). INNOVATIVE TENDENCIES OF TOURISM AND HOTEL BUSINESS DEVELOPMENT IN GLOBALIZATION. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, (7 (19)), 305-314.
16. Ro'ziqulova Mahliyo G'ayratovna. (2026). EXTREME TOURISM AND SAFETY ISSUES. TA'LIM FIDOYILARI.
17. <https://doi.org/10.5281/zenodo.19664848>
18. Xujaev, M. (2020). Mahmudkhuja Behbudiy as a leader of jadid reforms. *The Light of Islam*, 3, 39-47.
19. Evlen, H., Juraev, D., Ziyamukhamedova, U., Khujaev, M., & Jalilov, F. (2025). PLA/Ti6Al4V composite scaffolds for bone tissue engineering: mechanical and thermal properties via FDM and bioprinting. *Journal of Biomaterials Science, Polymer Edition*, 1-25.
20. Abduraimova, N., Sharopova, N., Khujaev, M., Sapayev, V., Fattoyeva, O., & Yusufov, S. (2025). Economic development through analysis of the education and entrepreneurship impacts. *Economic Annals-XXI/Ekonomičnij Časopis-XXI*, 214(3/4), 84.
21. Isoxonovich, M. X. (2022). Middle Ages Movarounnahr Rulers in the Views OF Researchers. *European Journal of Innovation in Nonformal Education*, 2(6), 134-136.
22. Xujayev, M. I. (2018). THE COVERAGE OF THE PROBLEM OF NATIONALITY AND ITS ROLE ON THE PRESENT DAY IN AHMAD ZAKI VALADI'S WORK. *Мировая наука*, (6 (15)), 61-63.
23. Хужаев, М. И. (2018). АҲМАД ЗАКИ ВАЛИДИЙНИНГ ДИНИЙ-ФАЛСАФИЙ МЕРОСИНИНГ ИЛДИЗЛАРИ. In *Инновационные подходы в современной науке* (pp. 177-182).
24. Khujaev, M. (2024). AHMED ZAKI: ON THE IDEAS OF THE PHILOSOPHY OF HISTORY. *Экономика и социум*, (1 (116)), 235-239